O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDAGI LINGVOPOETIK TADQIQOTLARDA YORDAMCHI SO‘Z TURKUMLARIGA MUNOSABAT

Ismailova Dilnoza Shavkatovna
Toshkent tibbiyot akademiyasi
akademik litseyi o‘zbek tili va adabiyot
fani o‘qituvchisi Tillar kafedrasi mudiri

https://doi.org/10.5281/zenodo.15287428

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada badiiy matn tilini o‘rganishda lingvopoetik yondashuvning nazariy asoslari haqida so‘z boradi. Mazkur yo‘nalishda ilmiy izlanishlar olib borgan olimlar va ularning ishlari haqida ma’lumot beriladi hamda bu ishlarda yordamchi so‘z turkumlariga munosabat masalalari tahlil qilinadi. Maqolada yordamchi so‘zlar haqida ayrim mulohazalar bildirilgan ishlardan namunalar keltiriladi va ular badiiy matnga qanday maqsadlarda olib kirilganligi, asar badiiyatini boyitishga qay darajada hissa qo‘shganligi haqida fikr – mulohazalar bildiriladi.

KALIT SO‘ZLAR

lingvopoetika, stilistik aspekt, estetik vazifa, yordamchi so‘zlar, ko‘makchi, bog`lovchi, yuklama, o‘xshatish vositasi.

АННОТАЦИЯ

В этой статье будут рассмотрены основы лингвопоэтического подхода в изучении художественного текста, а также ученые, проводившие научные исследования в этой области. В статье будет проанализирован вопрос отношения к служебные слова в этих работах. Приведены примеры из некоторых исследований о служебные слова и обсуждаются цели, с которыми эти элементы были включены в художественный текст, а также мнения исследователей по этому поводу.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

лингвопоэтика, стилистический аспект, эстетическая задача, служебные слова послелог, союз, частица, средство сравнения.

ABSTRACT

This article provides an overview of the basics of the linguistic-poetic approach in studying artistic texts, as well as information about scholars who have

KEY WORDS

linguistic poetics, stylistic aspect, aesthetic function, auxiliary

conducted scientific research in this field. The article also analyzes the issues related to auxiliary parts of speech in these works. Examples from studies discussing auxiliary words are presented, and the researcher's views on the purposes for which these words are introduced into artistic texts are provided

words, auxiliary, conjunction, predicative, means of comparison

KIRISH

Badiiy asar tilidagi so‘zlar xilma-xil ma’no jilosiga, cheksiz tasviriy ifoda imkoniyatlariga ega ekanligi bilan o‘zbek tilining rang-barang jihatlarini ochib beradi. Olimlarimiz azaldan badiiy asar tilini o‘rganishga katta qiziqish bildirishgan. Badiiy asar tilini o‘rganishda asosan keng tarqalgan ikki xil yo‘nalish mavjud. Bu ikki yo‘nalishni X. Doniyorov va S.Mirzayevlar quyidagicha ta’riflaganlar: “Tildagi o‘sish, o‘zgarishlarni o‘rganishni o‘z oldiga vazifa qilib qo‘yadigan aspekt – lingvistik aspekt, yozuvchining umumxalq tiliga bo‘lgan munosabati, til boyliklaridan foydalanishi, yozuvchining mahorati va stili haqida xulosa chiqaruvchi aspekt- stilistik aspektdir”[1] Badiiy asar tilini o‘rganishdagi stilistik yo‘nalish tilning estetik vazifasini tadqiq etishga qaratilgan. Tilning estetik vazifasining namoyon bo‘lish o‘rni badiiy asar matnidir. Bunda badiiy asar tilidagi ma’nodosh, shakldosh va zid ma’noli, ko‘p ma’noli, tarixiy va arxaik so‘zlar, yangi yasalmalar, shevaga oid so‘zlar, chet va vulgar so‘zlar ajratib olinadi hamda asarga nima maqsadda olib kirilgani izohlanadi. Badiiy asar tilini tilning aynan estetik vazifasining namoyon bo‘lishi tarzida o‘rganuvchi tilshunoslik fanining sohasi “lingvistik poetika” – “lingvopoetika” deb nomlash ancha turg‘unlashdi[2]. Lingvopoetika badiiy matn tili, shakli va mazmun birligini, til birliklarining badiiy qimmatini hamda o‘quvchiga estetik ta’sirini o‘rganadi. Lingvopoetika tilshunoslik va adabiyotshunoslik sohalari erishgan yutuqlarga tayanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O‘tgan asrning 50-yillaridan boshlab o‘zbek tilshunosligida ham lingvopoetikaga oid tadqiqotlar dastlab maqolalar tarzida keyinchalik dissertatsiyalar tarzida amalga oshirildi. Badiiy tili masalasini ayni lingvopoetik

[1] Дониёров Х. Мирзаев С. Сўз санъати, - Тошкент, 1962, 173-174- бетлар
[2] Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадиий тил махорати, Филол. фан. ном. ...дисс. – Тошкент, 2000, Б-14- 51

maqsadlar bilan yoritishda R. Qo‘ng’urov[3], I. Qo‘chqortoyev[4], Q. Samadov[5], B.Yo‘ldoshev[6], H.Doniyorov va S.Mirzayev[7], L.Abdullayeva[8], E.Qilichev[9], P.Qodirov[10], B.Umurqulov[11], S.Karimov[12], M. Yo‘ldoshev[13] G.Keldiyorova[14], D.Shodiyeva[15], D.Andaniyozova G.Muhammadjonova[16], H Abdurahmonov ва N.Mahmudov[17], A. Xasanov[18], S.Toshxo‘jayeva[19], D.Turdialiyevalarning[20], G.Jumanazarova[21], M. Qurbonova[22] va juda ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlarini keltirishimiz mumkin. Ma’rufjon Yo‘ldoshevning “Badiiy matnning lingvopoetik tahlili” nomli doktorlik dissertatiyasida badiiy matn, unga lingvopoetik yondashuv hamda badiiy matndagi til vositalarining poetik aktuallashuvi masalalari batafsil yoritilgan. Mazkur ish keyingi yillarda badiiy matn tahliliga lingvopoetik yondashuv masalalariga qaratilgan ilmiy izlanishlar uchun tayanch vazifasini bajarib kelmoqda.

TAHLIL VA NATIJALAR

Keyingi yillarda u yoki bu ijodkorning til boyliklaridan foydalanishi, so‘z qo‘llash mahorati va uslubini yoritishga qaratilgan tadqiqot ishlari

---

3 Қўнғуров Р. Ўзбек тили стилистикасидан очерклар. – Самарқанд, 1975.

4 Қўчқортоев И. Бадиий нутқ стилистикаси. – Тошкент: Фан, 1975.

5 Самадов Қ. Ойбекнинг тил маҳорати. – Тошкент: Фан, 1981; Самадов Қ. Ўзбек тили услубияти (бадиий услуб). – Тошкент: Ўқитувчи, 1991.

6 Йўлдошев Б. Бадиий нутқ стилистикаси. – Самарқанд, 1982; Юлдашев Б. Стилистический анализ узбекской художественной прозы. – Ташкент: Ўқитувчи, 1989.

7 Дониёров Х., Мирзаев С. Сўз санъати. – Тошкент: Ўзадабийнашр, 1962; Дониёров Х., Йўлдошев Б. Адабий тил ва бадиий стил. – Тошкент: Фан, 1988.

8 Абдуллаева Л. Лексическая стилистика узбекской художественной литературы. – Ташкент: Фан, 1979.

9 Қиличев Э. Бадиий тасвирнинг лексик воситалари. – Тошкент: Фан, 1982.

10 Қодиров П. Халқ тили ва реалистик проза. – Тошкент: Фан, 1973.

11 Умурқулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. – Тошкент: Фан, 1990.

12 Каримов С. Ўзбек тилининг бадиий услуби: Филол. фан. д-ри ...дис. автореф. – Тошкент, 1993.

13 Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадиий тил махорати, Филол. фан. ном. дис. – Тошкент,2000; Йўлдошев М Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. Филол. фан. д-ри ...дис – Тошкент, 2009

14 Келдиёрова Г. Ўзбек бадиий нутқида антитеза. Филол. фан. ном. дис.-Тошкент, 2000.

15 Шадиева Д. Мухаммад Юсуф шеърияти лингвопоэтикаси Филол. фан.ном. дис.-Тошкент, 2007

16 Мухаммаджонова Г. 80-йиллар охири, 90-йиллар бошлари ўзбек шеъриятининг лингвопоэтик тадқиқи Филол. фан.ном. дис.-Тошкент -2003

17 Абдураҳмонов Х., Маҳмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1981; Маҳмудов Н. Ўзимиз ва сўзимиз. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1997. – Б. 58-66.

18 Ҳасанов А. Абдулла Қаххор ҳикоялари тили бадиятини таъминловчи лексик-стилистик воситалар. Фил. фан. ном. дис. Т.2010,

19 Тошхўжаева Ш. Эркин Аъзам асарлари лингвопоэтикаси: Филол.фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) дис. автореф. – Фарғона, 2017.

20 Турдиалиева Д. Ўзбек халқ мақоллари лингвопоэтикаси. Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри. (PhD) дис. – Қарши, 2019.

21 Жуманазарова Г. Фозил Йўлдош ўғли достонлари тилининг лингвопоэтикаси Филол. фан.д.ри. дис.-Тошкент, 2017

22 Қурбонова М. Мустақиллик даври достонлари лингвопоэтикаси. Фил. фан. ном. дис, Т., 2020

maydonga keldi. Mazkur maqolani yozish jarayonida badiiy matnning lingvopoetik tahliliga bag`ishlangan 32 ta tadqiqot ishi bilan tanishib chiqildi va bu ishlarda yordamchi so‘z turkumlariga munosabat masalasi o‘rganildi. Aksariyat tadqiqot ishlarida yordamchi so‘z turkumlari haqida hech qanday fikr bildirilmagan. Yordamchi so‘z turkumlari haqida ayrim mulohazalar bildirilgan tadqiqot ishlarining ba’zilariga to‘xtalib o‘tamiz. M. Yo‘ldoshev Cho‘lponning badiiy til mahoratini tadqiq qilar ekan, “Kecha va kunduz” romanida qo‘llanilgan o‘xshatishlarni ham tahlilga tortgan. Cho‘lponning, ayniqsa, o‘xshatish etalonini tanlashda betakrorligi misollar orqali yoritilgan. Masalan, *Domla maktabidan “ozod” bo‘lgan eski maktab bolalari* ***singari*** *o‘zini eshikka urdi. Kamsitishlar o‘sha onning o‘zidayoq unutilgan, o‘tgan yilgi qorday erib yo‘q bo‘lgan, bahordagi yomg‘ir* ***kabi*** *asari ham qolmagan.* Bunday o‘xshatishlarda ko‘makchi o‘xshatish vositasi sifatida xizmat qilgan. Misollardan ko‘rinadiki, Cho‘lpon romanda o‘xshatishlarning..butun lisoniy badiiy imkoniyatlarini to‘liq ishga sola bilgan, uni xalq tilining katta bilimdoni sifatida yaratgan o‘xshatishlari o‘zining betakrorligi, kuchli obrazliligi bilan alohida ajralib turadi.[23] A.Xasanov o‘z nomzodlik ishida Abdulla Qahhor hikoyalari tili badiiyatini ta’minlovchi leksik-stilistik vositalarni o‘rganar ekan, adib hikoyalarida uchraydigan o‘xshatishlarni ham tahlilga tortadi. Olim adib hikoyalarida qo‘llanilgan o‘xshatishlarni qanday grammatik vositalar yordamida yuzaga chiqishiga ko‘ra uch guruhga bo‘ladi: 1.O‘xshatish vositalarining affikslar bilan ifodalanishi; 2. O‘xshatishning yordamchi so‘zlar bilan ifodalanishi; 3. O‘xshatishlarning leksik-grammatik vositalar bilan ifodalanishi. Abdulla Qahhor hikoyalarida o‘xshatishlar *xuddi, go‘yo* yuklamalari; *singari, qatori* ko‘makchilari yordamida ifodalanishini misollar orqali izohlaydi. Jumladan, *Hali siz diqqat qilmadiningiz, ko‘chaning boshida turishini ko‘rsangiz-* ***xuddi*** *cho‘chigan tovuqday boshini silkib- silkib, atrofga qaraydi.* (“Ig‘vogar”) – *Qo‘ling* ***xuddi*** *erkakning qo‘liga o‘xshaydi-ya, Maston.*(“Maston”) Bunday o‘xshatishlarda xuddi yuklamasi *-day, -dek* hamda *o‘xshamoq* vositalari bilan birga qo‘llaniladi. [24] Go‘yo o‘xshatish yuklamasi yakka holda ham *-day, -dek* qo‘shimchalari bilan qavatlashgan holatda ham keladi. *Hamma rasm-rusum joyiga yetkazilgandan keyin odamlar tobutni ko‘targanda shu rishta birdan tortildi-yu,* ***go‘yo*** *Hikmat buvaning yurak-bag‘rini sug‘urib oldi. (“Mahalla”)*

[23] Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадиий тил махорати, Филол. фан. ном. ...дис. – Тошкент, 2000, Б-112

[24] Ҳасанов А. Абдулла Қаххор ҳикоялари тили бадиятини таъминловчи лексик-стилистик воситалар. Фил. фан. ном. дис. Т.2010, Б-106

Shamol bir xuruj qilganida nimanidir keltirib darchaga urdi. U narsa darchani tirmalagancha sidirilib pastga tushib ketdi. Hamma o‘tirgan yerida ***go‘yo*** *bir qarich cho‘kkan****day*** *bo‘ldi va tin olmay bir-biriga qaradi. (“Dahshat”)* Bunday o‘xshatishlar abstarakt o‘xshatishlar deb ham yuritiladi. Yozuvchi o‘xshatishning bu turidan personajlarning ruhiy kechinmalarini yaqqollashtirishda unumli foydalangan. *Singari, qatori* ko‘makchilari bilan hosil qilingan o‘xshatishlarda o‘xshatish vositasi o‘xshatish etalonidan so‘ng o‘rinlashadi. *Odam intiladigan cho‘qqi tog‘ cho‘qqisi* ***singari*** *bulutlar orasida emas, yerda bo‘ladi, - dedi Samijon* (“Nurli cho‘qqilar”) “*Shuncha yil sening zavodingda ishlab qornim ham to‘ymadi, ochdan ham o‘lmadim, sen meni ot* ***qatori*** *ko‘rarding, toypaxtalar orasida qolib qovurg‘am singanda kasalimni mahalla boqqan”,- deb o‘pkalaydimi?* (“Yillar”) Singari ko‘makchisi badiiy uslubga xos bo‘lib unda ko‘tarinki, tantanavor ruh yetakchilik qiladi. Qatori yarim ko‘makchisi esa asosan jonli so‘zlashuv tiliga xos. Yozuvchi undan personaj nutqiga jonli tilga xos kolorit berish maqsadida foydalangan hamda ruhiy tahlilning ajoyib namunasini yarata olgan.[25] Mustaqillik davri dostonlarini lingvopoetik jihatdan tahlil qilgan M.Qurbonova ham dostonlardagi o‘xshatishlarda yordamchi so‘zlar o‘xshatish vositasi sifatida qo‘llanilganligini ta’kidlaydi. Jumladan, A. Oripovning

Minglab ko‘zlar tikiladi bitta o‘zimga,
Chunki mening qismatimga janglar yozilgan.
Faqatgina Bibixonim to‘lin oy ***kabi,***
Yoritadi tund qorong‘i kechalarimni.

Doston qahramonining ichki tuyg‘ulari-yu ruhiy kechinmalarini aks ettirish maqsadida ijodkor kabi ko‘makchisini o‘xshatish vositasi sifatida qo‘llaydi. Ushbu o‘xshatishda Amir Temurning Bibixonimga bo‘lgan cheksiz hurmati, e`tibori va ehtiromi o‘z ifodasini topadi.[26]

It yaxshi biladi: Qadri- bebaho!
Xo‘sh, uni quchoqlab o‘psinlarmi?
Yo‘q!
Axir *chegara bor hurmatda* ***hatto!*** (Usmon Azim Saylanma) Shoir bu she`rida xalq tilidagi *tumshug‘ini suqmoq, burnini suqmoq* obrazli iborasi yordamida xalq orasidagi “har narsaning o‘z chegarasi bor” aqidasini butun mohiyati bilan ochib bergan. Ta’kidni kuchaytirish maqsadida

[25] Xasanov A. Ўша диссертация, B-107
[26] Қурбонова М. Мустақиллик даври достонлари лингвопоэтикаси. Фил. фан. ном. дис., Т., 2020., Б-125

shoir satrning boshi va oxirida kuchaytiruv yuklamalarini (*axir, hatto*) qo‘llaydi. Ta’kidni kuchaytirish kitobxon ongiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi.[27]

Usmon Nosir asarlari lingvopoetikasini tadqiq etgan J.Yuldashev ilmiy ishi ikkinchi bobining ritorik so‘roq gaplar lingvopoetikasi deb nomlangan faslida Usmon Nosir she’rlarida qo‘llangan ritorik so‘roq gaplar asosan so‘roq olmoshlari va so‘roq yuklamalari yordamida shakllantirilganligini aytadi. Xususan, Usmon Nosir ijodining gultoji bo‘lgan “Nil va Rim” dostonidan olingan parchada *Bundan boshqa xo‘rlik bor**mi axir** insonga?* birgina ritorik so‘roq gap butun dostonda aytilmoqchi bo‘lgan alam, afsus, nadomat kabi qo‘shimcha ma’nolar ifodalashini ta’kidlagan [28]. O‘zbek tilida so‘roq va buyruq konstruksiyalarining lingvopoetik tahlilini olib borgan T. Allayorov so‘roq yuklamalarining so‘roq mazmunini ifodalashdan tashqari jonli so‘zlashuv nutqida buyruqni yumshatish uchun ham ishlatilishini bildiradi: “*Yerib borganda telefon qilib qo‘y*” jumlasining o‘rniga “*Yetib borganda telefon qilib qo‘ygin-a!”*[29] Shuningdek, J.Yuldashev Usmon Nosir asarlaridagi o‘xshatishlarni ham tahlilga tortadi. Ijodkor she`rlarida o‘xshatish vositasi sifatida *–day,-dek,-simon, -ona, -namo, -omuz, -cha, -larcha* affikslari bilan bir qatorda *kabi, go‘yo, misoli* yordamchi so‘zlari ham ishlatilganligini yozadi. Masalan,

*Boqsam:.xom.sut.**kabi***
Ko‘kimtir sahar (“Naxshon”) Yuqoridagi kabi shoirning o‘ziga xos o‘xshatishi hech bir ijodkor asarlarida uchramaydi.[30]
Sh.Siddiqovaning O‘zga gap sintaksisi va lingvopoetikasiga bag`ishlangan nomzodlik ishida *go‘yo* yuklamasi o‘zga gap(ko‘chirma gap) tarkibida kelib axborotning aniq va ishonchli emasligi ta’kidlash maqsadida qo‘llanilishini misollarda izohlagan. *Nilufar yaqinda allaqaysi jurnalda o‘qigan edi: **go‘yoki** ko‘z yoshi kishiga foyda keltiradi degan gap shunchaki taxmin emas, balki ilmiy jihatdan asoslangan fikr emish, **go‘yo** alam ko‘z Yoshi bilan chiqib ketarmish* (O.Yoqubuv “Billur qandillar) [31]

XULOSA

Kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, lingvopoetik tadqiqotlarda yordamchi so‘z turkumlari ishning rejasi yoki fasli darajasida o‘rganilmagan. Ayrim ishlarda

[27] Қурбонова М Ўша диссертация В-71
[28] Yuldashev J. Usmon Nosir she`riyati lingvopoetikasi Fil. fan. nom.dis, Avtoreferat, Toshkent., 2023, B- 19
[29] Аллаёров Т. Ўзбек тилидаги буйруқ ва сўроқ конструкцияларининг лингвопоэтик хусусиятлари Фил. фан. ном. дис., Автореф. Гулистон, 2020, Б-23
[30] Yuldashev J. O‘sha dissertatsiya B- 20
[31] Сиддикова Ш. Ўзга гап синтаксиси ва лингвопоэтикаси Фил. фан. ном., Тошкент, 2019,

yordamchi so‘z turkumlari haqida yo‘l-yo‘lakay fikrlar bildirilgan. Bu ishlarning aksariyatida ***singari, kabi*** ko‘makchilari, ***go‘yo, xuddi, naq*** yuklamalari o‘xshatish vositasi sifatida yuzaga chiqishi haqida fikrlar keltirilgan. Aytish joizki, yordamchi so‘z turkumlarining qamrovi katta ekanligi hisobga olinsa, kengroq va batafsilroq o‘rganish zarurati seziladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Дониёров Х. Мирзаев С. Сўз санъати, - Тошкент, 1962;
2. Қўнғуров Р. Ўзбек тили стилистикасидан очерклар. – Самарқанд, 1975;
3. Қўчқортоев И. Бадиий нутқ стилистикаси. – Тошкент: Фан, 1975;
4. Самадов Қ. Ойбекнинг тил маҳорати. – Тошкент: Фан, 1981;
5. Самадов Қ. Ўзбек тили услубияти (бадиий услуб). – Тошкент: Ўқитувчи, 1991;
6. Йўлдошев Б. Бадиий нутқ стилистикаси. – Самарқанд, 1982;
7. Умурқулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. – Тошкент: Фан, 1990;
8. Каримов С. Ўзбек тилининг бадиий услуби: Филол. фан. д-ри ...дис. автореф. – Т., 1993;
9. Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадиий тил махорати, Филол. фан. ном. ...дис. – Тошкент,2000;

10.Йўлдошев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. Филол. фан. д-ри ...дис – Т., 2009;

11. Ҳасанов А. Абдулла Қаххор ҳикоялари тили бадиятини таъминловчи лексик-стилистик воситалар. Фил. фан. ном. дис. Т., 2010;

12. Қурбонова М. Мустақиллик даври достонлари лингвопоэтикаси. Фил. фан. ном.дис, Т., 2020; 13. Аллаёров Т. Ўзбек тилидаги буйруқ ва сўроқ конструкцияларининг лингвопоэтик хусусиятлари. Филол. фан. ном. ...дис. – Гулистон, 2020.